

ZULFIYAXONIM – SADOQAT VA VAFO TIMSOLI

**Yuldosheva Begoyim**

NavDPI O‘zbek tili va adabiyoti fakulteti 3-kurs talabasi

Jamiyatimiz hayotida ayolning o‘rni beqiyos. Ayol haqida so‘z borar ekan, ko‘z oldimizga Ona timsoli gavdalanadi. O‘tmish zarvaraqlariga nazar solsak, buyuk shoir-u olimlar, yozuvchilarni ham ona tarbiyalagan. Har bir insonning ma’naviy rivojlanishida ayolning o‘rni muhim. Tariximizning qiyin davrlarida ham ayollarimizning qat’iyati, irodasi, matonati ko‘pchilikka o‘rnak bo‘lgan. Ana shunday mard, qat’iyatli, irodali, ilmi, ma’rifatli, sabr-bardoshi bilan ko‘pchilik ayollarga o‘rnak bo‘la oladigan shoirlarimizdan biri Zulfiyaxonimdir.

Zulfiyaxonim Isroilova o‘zbek she’riyatida o‘z so‘ziga va mustaqil ijod yo‘liga ega bo‘lgan adibalarimizdan. Millatimizning faxri, milliy ma’naviyatimizning timsoli, sabr-qanoat ramzi hisoblanadi. Zulfiyaxonim ijodini bilmagan, she’rlarini yod olmagan o‘quvchining o‘zi yo‘q desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Adibamiz o‘z she’riyati bilan, hayot yo‘li bilan o‘zbek ayollarining ma’naviy qiyofasini aks ettirgan shoiradir. Zulfiyaxonim o‘zining sadoqati, vafosi bilan barcha ayollarga o‘rnak bo‘la olgan, xotin-qizlar istiqboli uchun, ularning istedodini yuzaga chiqarish uchun, ijodkor qizlarning qo‘lidan tutib adabiyot olamiga olib kelgan, ularga yo‘l-yo‘riq ko‘rsatgan mehribon va shu bilan birga talabchan Ustoz bo‘lganlar.

Zulfiyaxonim ijodini davom ettirish, ijodkor shoira qizlarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida hukumatimiz tomonidan 1999-yil 10-iyunda Zulfiyaxonim Davlat mukofoti ta’sis etilgan. Bu mukofot xotin-qizlarga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirish, ilmi, shijoatli, qat’iyatli zulfiyaxonimlarni kelajak avlod uchun, jamiyat rivoji uchun munosib taqdirlash, ularning ijodlarini yuksak baholash, rag‘batlantirishga hissa qo‘shadi.

Zulfiyaxonim mukofotini olish barcha o‘zbek qizi uchun sharaf hisoblanadi. Bu mukofotga ega bo‘lgan qizlar jamoatning har bir ishlarida faol qatnashib, o‘zining zukkoligi bilan, she’riyatga oshno qalbi bilan intilgan, ilm-u fanda ko‘plab yutuqlarga erishgan shijoatli, tirishqoq o‘zbek qizlaridir. Zulfiyaxonim mukofotini olgan nomzodlar har yili shaxsan Prezidentimiz tomonlaridan munosib taqdirlanadilar. Bu mukofot qizlarga keyingi faoliyatlarida yanada ma’suliyat bilan ishlashlariga, bundanda yuqori marralarni zabt etishga undaydi. Hukumatimiz tomonidan Zulfiyaxonim qizlariga katta imkoniyatlar berganligi ularni yanada ijod qilishga, izlanishga undaydi. Zulfiyaxonim tavalludi munosabati bilan maktablarda, texnikumlarda va oliy ta’lim muassasalarida qizlarimizning

haqiqiy o‘zbek ayoli ekanliklarini namoyon qilib beruvchi “Bahor malikalari”, “Nafosat malikalari”, “Balli qizlar” kabi tanlovlar o‘tkazilib kelinmoqda. Albatta, bunday tadbirlar qizlarimizning iqtidorini yuzaga chiqarishga ham muhim vazifani bajaradi.

Zulfiyaxonimning o‘chmas xotirasi, yaratgan she’rlari, bosib o‘tgan umr yo‘llari barchamizga o‘rnak, ruhiy dalda va ma’naviy kuch bo‘lib xizmat qiladi.

